

«Quyosh qoraymas» romanidagi metaforalarning stilistik xususiyatlari

Onarboyeva Xusnida Shuhratjon qizi

**Samarqand shahar 82-umumiy o'rta ta'lim maktabi oliy toifali ona tili va
adabiyot o'qituvchisi**


Oybekning «Quyosh qoraymas» romani tili badiiy tasvir ifoda vositalariga boyligi bilan ajralib turadi. Yozuvchi ushbu asarida metaforalarni chuqur psixologik tahlil, ijtimoiy muammolarni tasvirlash, xarakterlarning ichki dunyosini, qolaversa, bir predmetni boshqa original nomlar bilan nomlash va u orqali ona tilimizning keng imkoniyatlarini ochib berish uchun samarali foydalangan. Roman tarkibidagi metaforalarni lingvistik tadqiq qilish adibning ona tilimiz xazinasiga qo'shgan hissasi haqida gapirishimizga yo'l ochadi.

Oybek ijodida an'anaviy metaforalar qatoriga kiruvchi qora so'ziga ko'p murojaat qilingan, xususan, asar matnida qora so'z shaklidan 70 marta foydalanilgan. Yozuvchi, asosan, qora so'zining ko'chma ma'nosiga urg'u berishi bilan birga, bu metaforalarning diapazonini kengaytirganiga guvoh bo'ldik. Masalan, asarning nomiga e'tiborimizni qaratsak, «Quyosh qoraymas» ning o'zi bir metaforadir. Ushbu birikma butun boshli romanning mazmuni, g'oyasi va xulosasi o'laroq maydonga kelgan. Quyosh, odatda, hayot va ozodlikning ramzi sifatida tasvirlanadi, «qoraymas» so'zi esa quyoshning o'z holatini o'zgartirmaydi, ya'ni u har doim nur sochaveradi degan ma'noni anglatadi. Shu tarzda, bu metafora har qanday qiyinchiliklar yoki sinovlarga qaramay, yorug'lik, umid yoki yaxshilikning o'zgarishsiz qolishi, hayotdagi har qanday muammolar bo'lgan taqdirda ham doim mavjud bo'lishining ramziy ifodachisi sifatida tanlangan. Ikkinchi jahon urushi sharoitida askarlarga optimistik va ruhiy qo'llab-quvvatlash, qolaversa adibning g'alabaga va ozodlikka ichki ishonchi sifatida ushbu asar maydonga kelgan va asar nomi ham munosib shakllantirilgan.

Romandagi har bir metafora dramatizmni kuchaytirish va tasvir mukammalligiga xizmat qilgan. Ya'ni yozuvchi urushning dahshatli oqibatlarini, urush qurollarini, jang tasvirlarini, obrazlar ruhiyatini, qolaversa, peyzaj yaratishda metaforalarga, portret yaratishda esa o'xshatishlarga ko'p murojaat qilganiga guvoh bo'ldik.

«Quyosh qoraymas» romani harbiy mavzudagi roman bo'lgani bois asardagi aksariyat original metaforalar harbiy atamalarni, texnikalarni qayta nomlash uchun qo'llanilgan. Asarda bir tushunchaning bir necha xil nomlanishiga guvoh bo'ldik-ki,


bu Oybekning naqadar teran tafakkur egasi bo'lganidan dalolat. Romanda bir so'zning bir nechta konnotativ ma'nolari yuzaga keltirilib, o'zbek tiliga bir qator yangi nomlar taqdim qilingan. Jumladan, Oybek qalamida samolyot so'zi 19 xil nom bilan ataladi. Bu haqida quyidagi chizma orqali aniq tasavvur hosil qilishimiz mumkin. Quyida berilganlarning deyarli hech biri O'TILda samolyot so'ziga nisbat berilmagan bo'lib, buni Oybekning o'zbek tilining boyligiga qo'shgan ulkan hissasi deb baholash mumkin.



Romanida qora soʻzi 71 marta qoʻllanilgan boʻlib, 27 oʻrinda koʻchma maʼnoni ifodalashga xizmat qilgan. Adib ushbu soʻzga katta maʼno va ramziylik yuklagani maʼlum. Masalan: samolyotning qora qanot, qora qush, qora shakl, qora balo metaforik shakllari orqali urushda u keltiradigan mashʼum oqibatlarini ifodalashga xizmat qilgan. Ushbu birikmalarning metaforik maʼnosini kontekstda yanada aniqroq tasavvur qilishimiz mumkin: «**Qora qanotlar** oʻsib, havoni qopladi...» [1, 16]; Samolyotlarning uzoqlashgan gʻuvuri hali samoda tinmay turib, juda olisdan qandaydir **qora shakllar** koʻzga chalindi. Ular kattalashdi. Ularning toʻlqini ogʻir, salmoqdor va yovuz edi [1, 18]; Bir zumda **qora qushlar** Bektemirning tepasida charx ura boshladi [1, 23]. Parchalardagi qora soʻzi dushman samolyotining qanchalar xavf-xatar va yovuz kuchga ega ekanligiga ishora qilsa, «oʻsib, havoni qopladi» birikmasi samolyotlarning tobora soni koʻpayib, nihoyat havoni qoplash darajasida – sonining koʻpligi, keng koʻlamli hujumga shayligi, ularni bartaraf etish mushkul ekanligini anglatadi. «Charx ura boshladi» iborasi orqali qora qushning – yirtqich ekanligi va oʻljaga (odamlarga) hujumga tayyorlanib, pastlab uchayotganligini ifodalaydi. Bu tasvirlar urushning shavqatsiz va yovuz xarakterini kuchaytiradi. Qolgan misollarni ham koʻrib chiqamiz: «Kutilmaganda osmondan gʻuvillab **balo** shoʻngʻiydi» [1, 7]. «Yana nariroqda hiqillab yotgan bir jangchiga tomon emaklarkan, havoni tagʻin **motorlarning** boʻroni tutdi. Yana koʻkdan jahannam quyildi» [1, 16]; «Dahshatli va tahdidli kuch. M: Bektemir uchun bu **qanotli balolar** tamoman daf etilmas, yovuz kuch kabi tuyuldi» [1, 18]; «Havoda pulemyotlar tarilladi, snaryadlar yorildi... Mana, bir **kaxat** tutunlandi-yu, bir zumda qora-qizil olovga choʻlganib, erga shoʻngʻidi» [1, 54]; «Misha, kattalardek gʻazab bilan **fashist kaxatlarini** soʻkib, qizchani bagʻriga bosgan bosh yalang, yalang oyoq onaning qoʻlidan sudrab, tashqariga yugurdi» [1, 32]; «Bu – ogʻir yaradorlarni ortgan haligi mashinaning **havo balosidan** keyingi manzarasi edi» [1, 23]; «**Havodan shoʻngʻigan baloning** changalini koʻp dafʼa koʻrgan eski jangchilar xoʻmrayib, lekin sovuqqonlik bilan boqardilar» [1, 23]; «**Osmon balosining** uzoqlashganini sezgach, boshini koʻtarib, atrofga qaradi» [1, 21]; «U **dahshatli quyundan** yarim-yorti salomat qolgan parokanda karvonni tartibga soldi» [1, 23]; «Qaydadir koʻkda **fashist motorlarining** mashʼum sadosi. Qaydadir bombalar yoriladi» [1, 32]; «Bu vaqt havoda **dushman sadosi** ham oʻchgan edi» [1, 33]; «Koʻkda **mashina qushlarning** jangi qizidi» [1, 54]; «**Qizil yulduz qanotlilardan** (samolyot) ikkitasi olovlanib tushdi» [1, 54]; «**Shunqorlar** jangchilar tepasida mehribonlik bilan magʻrur aylandilar» [1, 54].

Bu iboralar orqali adib dushman samolyotlarining xavfli, mudhish oqibatlariga ishora qiladi. Qolaversa ushbu metaforalar urushning fojiali, og‘ir va shafqatsiz manzarasini aks ettirib, samolyotlarni turli xususiyatlariga ko‘ra ular olib keladigan dahshatning o‘lchami va hissiy og‘irligi ifoda qilingan. Adib shunchaki «samolyot», «qiruvchi samolyot», «bambardimonchi samolyot» deb qo‘ysa ham bo‘lardi, lekin Oybek bu jarayonlarni o‘quvchining ruhiyatida chuqur iz qoldiruvchi hodisaga aylantishni maqsad qiladi va bunga, shubhasiz erishadi.

Urush texnikalaridan yana biri tankning Oybek qalamida qayta nomlashi bilan ushbu jadval orqali tanishamiz:



Oybekning tankni turli obrazli nomlar bilan qayta obrazli nomlashi uning uslubiy yondashuvini va semantik ma‘noni kengaytirishdagi mahoratini namoyon etadi. Adib o‘quvchini jang maydonlaridagi tankni oddiy harbiy texnika sifatida emas, balki tajovuzkor, qo‘rqinchli, baquvvat dushman va halokat ramzi sifatida ko‘z oldiga keltirishini xohlaydi. Uning shafqatsiz harakatlarini «maxluq», «temir ro‘dapo», «temir jahannam» iboralarini orqali anglash mumkin. Quyida misollarga murojaat qilamiz: «Ular mashinalardan sakrab, bu **temir maxluqlar** panohida ilgarilashardi» [1, 19]; «Lekin u o‘zini har qancha tutishga, g‘azabli kuchlarini yig‘ib, mo‘ljallab otishga tirishsa ham, erni titratib, gulduros bilan jahannam yog‘dirib kelayotgan **temir devorlarning** vahmidan bosh ko‘tarish amrimahol edi» [1, 19]; «O‘nlarcha quturgan temir maxluqlar

to‘p va pulemyotlaridan otib yugurdi» [1, 19]; «To‘g‘ri, shu **temir jahannamida**) ish ko‘rsatgan azamatlar ham bor, buning hikmati nimada?» [1, 38]; «Tanklar o‘q yog‘dirib, tez kelardi. Orqadan tankka qarshi sovet to‘plari dahshatli olov ochdi. Oldingi **temir sovutli balo maxluqlardan** uchtasi falaj bo‘lganday dalada cho‘kib qoldi» [1, 39]; «U tankning motor qismiga yondiruvchi butilka tashladi shekilli, **lovillagan temir ro‘daponing** qornidan ofitser o‘zini uloqtirdi-da, to‘pponchasini tepadagi allakimga burdi» [1, 54]. Oybek tilidagi individual metaforalar asardagi dramatismni kuchaytirishga xizmat qilish bilan birga, har bir tasvir o‘quvchini tankning kuchi, dahshati va shafqatsizligiga bo‘lgan qo‘rquvni his qilishga undaydi. Eng asosiysi, Oybekning so‘z qo‘llash mahorati, tilimiz xazinasini boyitishga qo‘shgan hissasi kitobxonni lol qoldiradi.

Asar poetik qimmatini oshirishda **perifrazlar** ham muhim ahamiyatga ega. Oybek urush qurollarini ifodalashda bir nechta o‘rinlarda perifrazga ham murojaat qiladi. Masalan, aloqachi qizlarning jang maydondagi mardonavorliklarini e‘tirof etish uchun ularni «**olov malikalari**» deb ataydi: «Ularning bir tola sochi uchun jon bersang arziydi, — dedi xafalanib — Olov malikalari! Kecha birini ko‘mdik» [1, 202]. Yoki jangchilarimizning dovyurakliklarini ta’kidlash uchun ularni «**o‘limni mensimaslar**» deb ataydi: «O‘limni mensimaslarning atakasi keskinlashdi, o‘t bo‘ronlandi» [1, 208]. Mana bu o‘rinda esa serquyosh O‘zbekistonlik jangchilarni «**quyosh bolalari**» deb ta’kidlaydi: «Ha, quyosh bolalari qish qutlug‘ bo‘lsin! – dedi Azimov sho‘x kulgi bilan» [1, 169]. Urush quroli artileriyani esa «**urush xudosi**», «**jang ilohi**» deb ataydi: «Ana, eshityapsanmi, urushing xudosi uyg‘ondi. Mening bir do‘stim bor edi. ...antrpodgotovka boshlandimi, «do‘zaxning eshikning ochildi!» derdi»

Urush qurollarining adib qalamida jonlanishi betakror metaforik birikmalar yaratilishiga asos bo‘lgan. Masalan: «jonli temir»larning na’rasi [1, 52], bombalarning ingrashi [1, 53], chinqirib uchgan metal quyunlari [1, 49], jahannam pishqirgan temir maxluqlar [1, 49], pulyemotlarning chakagi ochilishi [1, 45], o‘qlarning o‘lim nafasi [1, 44], o‘qlarning go‘yo hid bilganday on sari uning atrofida g‘ingshimakka boshlashi [1, 44], minalarning yerni g‘ajishi [1, 21], o‘q bo‘roni [1, 87], o‘q do‘li [1, 44-83], o‘q yomg‘iri [1, 144] kabi birikmalar urush qurollarining ovozi, harakati, shiddati asosida metofofizatsiya qilingan.

Xulosa qilib aytganda, Oybekning bir so‘z o‘rnida bir nechta individual metaforik birikmalardan foydalanishi, so‘zlarning polisemantik imkoniyatlarini kengaytirishi, yangi so‘z yaratish mahorati, so‘zga mas’uliyat bilan yondashganini



bildiradi va u yaratgan soʻzlar xalq tili xazinasiga qoʻshgan ulkan hissa boʻlib qoʻshiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Oybek. Quyosh qoraymas. T., Oʻzadabiynashr, 1971.
2. MahmudovN. Oʻxshatishlar – obrazli milliy tafakkur mahsuli. // MahmudovN., XudayberganovaD. Oʻzbek tili oʻxshatishlariningi zohli lugʻati. — Toshkent: Maʼnaviyat. – 4 B.
3. Oʻzbek tilining izohli lugʻati. 5 jildli. A.Madvaliyev tahriri ostida. II jild. – Toshkent: OʻzME, 2006. – 490 B.
4. Karimov S.A. Badiiy uslub va tilning ifoda tasvir vositalari. Oʻquv qoʻllanmasi. – Samarqand: SamDU nashriyoti, 1994. – 72 B.